

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.No'monzoda</b>	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	331
<b>F.A.Hamdamova</b>	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni .....	334
<b>M.A.Nishonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi .....	338
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari .....	343
<b>S.S.Asatov</b>	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati .....	346
<b>D.Q.Majidova</b>	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
<b>S.R.Qutlimuratov</b>	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati .....	355
<b>N.U.Jamalova</b>	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
<b>M.A.Matmusayeva</b>	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi .....	365
<b>B.B.Xaitbayeva</b>	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish .....	368
<b>F.A.Ibroximov</b>	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati .....	374
<b>R.B.Tursunov</b>	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish .....	379
<b>D.B.Toshaliyev</b>	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
<b>U.Xolova</b>	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida ) .....	386
<b>S.E.Baymuradova</b>	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
<b>B.M.Qandov</b>	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
<b>A.M.To'rayev</b>	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida .....	400
<b>A.A.Meliqo'ziyev</b>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	404
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
<b>Y.S.Sidiqova</b>	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida .....	413
<b>B.X.Karimov</b>	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni .....	418
<b>Y.M.Namozova</b>	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida .....	423



УО'К: 378.014.15

**OLIY TA'LIM TALABALARINI MA'NAVIY-MADANIY MEROSGA AKSIOLOGIK  
MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI VA TARBIYAVIY  
XUSUSIYATLARI**

**СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ И ТРЕНИРОВАНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК РАЗВИТИЯ  
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ДУХОВНОМУ И КУЛЬТУРНОМУ  
НАСЛЕДИЮ**

**THE SOCIAL SIGNIFICANCE AND EDUCATIONAL CHARACTERISTICS OF  
DEVELOPING STUDENTS' AXIOLOGICAL ATTITUDE TOWARDS SPIRITUAL-CULTURAL  
HERITAGE**

**Toshaliyev Dilshodjon Baxodirjon o'g'li**   
Farg'onan davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada oliy ta'lif talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlanirishning nazariy-metodologik asoslari, oliy ta'lif talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlanirishning metodik tizimi va oliy ta'lif talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlanirishning samaradorligi o'rGANILGAN. Shuningdek, oliy ta'lif talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlanirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития аксиологического отношения студентов высших учебных заведений к духовному и культурному наследию, методическая система формирования этих отношений и эффективность такого развития. Также анализируются социальная значимость и воспитательные характеристики формирования аксиологического отношения студентов к духовному и культурному наследию.*

**Abstract**

*The article explores the theoretical and methodological foundations for developing higher education students' axiological attitudes towards spiritual and cultural heritage, the methodological system for fostering these attitudes, and the effectiveness of such development. Additionally, it analyzes the social significance and educational characteristics of cultivating students' axiological attitudes towards spiritual and cultural heritage.*

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lif, ma'naviy-madaniy meros, aksiologik munosabat, nazariy-metodologik asos, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, ijtimoiy ahamiyat, tarbiyaviy xususiyat.

**Ключевые слова:** высшее образование, духовное и культурное наследие, аксиологическое отношение, теоретическая и методологическая основа, компетенция, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактика, социальная значимость, воспитательные характеристики.

**Key words:** higher education, spiritual-cultural heritage, axiological attitude, theoretical-methodological foundation, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, social significance, educational characteristics.

**KIRISH**

Har qanday jamiyatda ham yosh avlod tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki, jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlodi tarbiyasiga bog'liq. Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, jismoniy va ma'naviy-madaniy rivojlanishiga mutazam ta'sir etib boruvchi uzlusiz jarayon. Endilikdagi asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lif va tarbiya berish, ularning kuch va sadoqatini ana shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etishdir. Buni dunyoning ko'pgina davlatlari qatori yurtimizda olib borayotgan odiloni siyosati natijasida amalga oshirilayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, aksiologik munosabatni qaror toptirishning ilmiy-amaliy vazifalari D.Karomatli, T.Levin, Y.Elsner, E.Abdulin, Y.Bodina, O.Bochkareva, E.Burzina, N.Ivanov, L.Koval, V.Rajnikov, A.Rapatskaya, YE.Fedorovich, S.Bulatov, B.Azimov, S.Annamuratova, O.Vasilchenko, Sh.Janaydarov, F.Jo'rayev, D.Kamolova, H.Nurmatov, F.Xalilov, A.Hasanov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oliy ta'lif talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyatini quydagicha asoslash mumkin:

Birinchidan, jamiyatni rivojlanib borishi ijtimoiy-ma'naviy sohalarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilarda ma'naviy-madaniy merosni asrashga doir bilimlarni rivojlantirishni tadqiq etish, bo'lajak o'qituvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash, jamiyatda erishilgan yutuqlar asosida mavzuni ilmiy-nazariy o'rganish hamda umumlashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, bugungi kunda yosh avlod dunyoqarashida vatanga bo'lgan muhabbat, istiqbolga ishonch tuyg'ularini shakllantirish muhim masala qilib belgilangan. Bunda ta'lif bilan tarbiyaning uzvilyigini ta'minlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi. "Ta'lif to'g'risida"gi yangi Qonunda mohiyati jismonan va aqlan sog'lom, boy dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga doir vazifalar alohida ko'rsatib o'tilganligi o'quvchilarda ma'naviy-madaniy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish masalalarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Uchinchidan, bozor munosabatlari sharoitida jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning yaratilishi, uning yoshlar ongida aks etishi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy qarashlarning milliylik ruhida shakllantirishga ham olib kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi taraqqiyot bosqichiga mos keladigan, ma'naviy yuksak avlodni voyaga yetkazishni ko'zda tutadi.

To'rtinchidan, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash ruhida tarbiyalash jarayonida uning ma'naviy-madaniy merosga qadriyatli munosabatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning ma'naviy-madaniy merosga qadriyatli munosabatini shakllantirish o'z-o'zidan ro'y beradigan jarayon emas. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni qadrsizlashga urinuvchi, yangicha ommaviy qadriyatlarni shakllantirishga harkatlar va g'oyaviy ta'sir vositalarining qudratli bo'lib borishi sharoitida bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida aksiologik yondashuvga qiziqish ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlikda yangi qadriyatlarni izlash aynan ijtimoiy beqarorlik mavjudligi sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. V.P.Zinchenko XX asr umuminsoniy qadriyatlarning eng yuqori darajada qadrsizlanish davri deb aytish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Ana shu sababli yangi ming yillikda ilmiy jamoatchilik insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni aniqlash, tartibga solish va tizimlashtirishga faol harakat qilmoqda. Bu jarayon ta'limga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni ta'lifda akseologik yondashuvdan foydalanish asosida fanga, ilmiy yondashuvlarga va yoki ilmiy jarayonga qadr tuyg'usi bilan qarash va unga ergashish ehtiyojlarini yuzaga keltirmoqda.

Pedagogik jarayonda ma'lumi bir muammoga alohida e'tibor qaratish, ma'lum bir bilim yoki ko'nikmani shakllantirishga qadriyatli munosabatni yuzaga keltirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilihsda olam, undagi narsa, voqeа, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning meyor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim. Bunga umumiy bilihs ilmi bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma'lumotlariga, ayniqsa, oliy asab sistemasining fiziologiyasi, hissiyot organlari va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o'rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg'unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog'liq uzviy jarayonni anglatadi.

Bugungi kunda har bir xalq oldida qadriyatlarni asrab-avaylash, ularga yangicha munosabatni shakllantirish va bu asosida ularning yashovchanligini shakllantirish kerakligi kelib

## ILMIY AXBOROT

chiqmoqda. Shu ma'noda ma'naviy-madaniy meros ham xalqning milliy qadriyati sifatida aksiolik munosabatga va bunday yondashuv asosida shakllangan yangicha munosabatga loyiq. Buni amalga oshirishning eng samarali yo'li ham ta'limga aksiolik yondashuvni olib kirish, ta'lum orqali ma'naviy-madaniy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-madaniy merosni asrba-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirish orqali o'quvchilarda ma'naviy-madaniy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi. O'quvchilarda o'zbek ma'naviy-madaniy merosiga aksiolik munosabatni rivojlantirish orqali jamiyatda ma'naviy-madaniy merosni shakllantirish va aksiolik mas'uliyatni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Pedagogik aksioligiya doir adabiyotlarda "qadriyatli ustanovka" tushunchasi ham uchraydi. Garchi ko'pchilik mualliflar "qadriyatli yo'nalganlik" va "qadriyatli ustanovka" tushunchalarini sinonim sifatida qo'llashsa ham, birinchilardan bo'lib M.Rokich ular orasidagi farqni alohida ajratib ko'rsatgan. Amerikalik olimning fikricha, ustanovkani ma'lum bir obyekt (konkret yoki abstrakt, shaxsiy yoki ijtimoiy)ga yoki vaziyatga nisbatan subyekt munosabatida aks etuvchi uzoq vaqt davomida shakllangan bir qancha ishonch, e'tiqodlar majmui deb qarash mumkin. Demak, yo'nalganlik shaxsning jamiyatdagi meyorlar bilan inson ehtiyojlari uyg'unlashuvi aks etsa, qadriyatli ustanovkada shaxsning amaliy faoliyatda mazkur munosabatlari tizimini ro'yobga chiqarishga tayyorligi aks etadi.

Aksiolik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida quydagilar aniqlashtirildi:

- shaxsda qadriyatlar tizimini shakllantirishni talab etuvchi ijtimoiy va shaxsiy omillarni integratsiyalash tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda ma'naviy-madaniy merosni asrab-avaylashda ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarni uyg'unlashirish, ular o'rtaisdagi yaxlitlikni ta'minlashni talab etadi;
- ijtimoiy faoliyattan tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarda ma'naviy-madaniy merosni asrab-avaylash uchun muhim va ziyorah ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda, shu jumladan, san'at olamida sodir bo'layotgan obyektiv o'zgarishlar bilan bog'liqlik talablarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishni talab etadi.

**XULOSA**

Pedagogik aksiologiya ma'lum bir obyektni qadriyaviy prizma asosida ko'rish, qadriyatli munosabatni hosil qilish asoslari, unga berilgan bahoning xususiyatlari asosida yondashishga asolanadi. Pedagogik aksiologiya sohasida tadqiqotlar olib borgan olim B.Xodjayevning ta'kidlashicha, shaxsning o'z ichki pozitsiyasini anglashi va aniq qadriyatlar bilan bog'liqlikda amaliy faoliyatga tayyorligi qadriyatli ustanovkaning mohiyatini belgilab beradi. Ustanovka shaxsning aniq faoliyatga tayyorgarlik holatini aks ettiruvchi kognitiv (bilim, axborot) va affektiv (emotsiya, hissiyot) komponentlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Demak, talabalarda ma'naviy-madaniy merosni asrab-avaylashga doir bilimlarini rivojlantirishda ta'linda aksiolik yondashuvdan foylanish, talaba shaxsiga qadriyali munosabat va bahoni bera oluvchi dunyoqarashni shakllantirish talab etiladi. Shu bilan birga talaba shaxsini qadriyatli faoliyatga tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

32. Rokeach M. The role of values in public opinion research // The Public Opinion Quarterly. Vol. 32. No. 4. – Р. 547-559
33. Зинченко В.П. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М.: Триада, 1994. – С.304.
34. Новейший философский словарь. – М., Наука, 1999. 256 - с.
35. Норлиев Р.И. Миллый тараққиёт ва маънавий юксалишнинг ўзаро алоқадорлиги ва таъсир хусусиятлари: Автореферат. фалсафа фан. ном. дисс. – Тошкент.: 2011. 10-б.
36. Ходжаев Б. Педагогик аксиология. – Тошкент.: "Fan va texnologiya", 2012. – Б.17.
37. Эргашев И. Миллый истиқбол ғояси. Дарслар. // Масъул мұхаррир –Т.: Академия, 2005. – 368 б. – Б.33.
38. Ўзбекистон миллый энциклопедияси. «Ўзбекистон миллый энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. – Тошкент.: 2010. 40-б.
39. Фойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. 212 -б.